

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIMNING HUDUDIIY QAMROVI: MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLAR KESIMIDAGI TAHLIL VA XALQARO TAJRIBA

Ayubov Rahmatullo Ravshanbek o'g'li

Makroiqtisodiy va hududiy tatqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi,

r.ayubov@imrs.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining hududiy taqsimoti va qamrovini tahlil qiladi. Ma'muriy-hududiy birliklar kesimida aholi soni va OTMLar nisbati o'rganilib, mavjud nomutanosibliklar ko'rsatiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovini oshirish va hududiy muvozanatni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqolada so'nggi yillardagi islohotlar va ularning natijalari hamda kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, hududiy qamrov, O'zbekiston, ta'lim islohotlari, aholi soni, OTMLar, xalqaro tajriba

KIRISH

Oliy ta'lim tizimining hududiy joylashuvi ta'limga kirish imkoniyatlari, inson kapitalining shakllanishi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun muhim institutsional omil hisoblanadi. Agar OTMLar soni va ularga jismoniy kirish imkoniyati hududlar bo'yicha keskin farqlansa, talabalar migratsiyasi kuchayishi, o'qishga kirish xarajatlari (yo'l, turar joy) oshishi va ayrim hududlarda yuqori malakali kadrlar taqchilligi yuzaga kelishi mumkin. Shu bois OTMLar tarmog'ini qamrov nuqtayi nazaridan muntazam baholash va hududiy siyosat bilan uyg'unlashtirish dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi

Universitetlarning hududiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha adabiyotlarda odatda uchta asosiy yo'nalishga ajratiladi: (i) inson kapitali (malakali kadrlar tayyorlash va hududda ushlab qolish), (ii) ilmiy tadqiqot va innovatsiya (bilim spilloverlari, startaplar, texnologiya transferi), (iii) "ankor" institut sifatida iqtisodiy faollik (bandlik, xizmatlar bozori, shahar infratuzilmasi). Ushbu uch yo'nalishning barchasida "makon" (joylashuv) omili hal qiluvchi ahamiyatga ega: OTMLar qayerda va qanday zichlikda joylashgani ta'lim xizmatlariga kirish xarajatlarini (masofa, vaqt, transport) shakllantiradi, bitiruvchilarning hududda qolib ishlash ehtimoliga ta'sir qiladi va biznes-universitet hamkorligi uchun zarur bo'lgan kundalik aloqalar intensivligini belgilaydi. Shu ma'noda, hududiy qamrovni tavsiflovchi oddiy ko'rsatkichlar adabiyotlarda ta'kidlangan mexanizmlarning "kirish sharti" sifatida talqin qilinadi: qamrov past bo'lgan hududlarda inson kapitali shakllanishi va innovatsion aloqalar uchun institutsional "platforma" cheklanishi ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. [1]

OECDning “Higher Education and Regions: Globally Competitive, Locally Engaged” (2007) hisobotida oliy ta’lim muassasalari hududlar uchun faqat ta’lim beruvchi tashkilot emas, balki regional innovatsion tizimlarning muhim elementi ekani ta’kidlanadi. Hisobotda universitetlarning teaching–research–service funksiyalari hududiy siyosat bilan uyg’unlashganda, mehnat bozori ehtiyojlari va biznes hamkorligi orqali hududning raqobatbardoshligini oshirishi qayd etiladi. [1]

Universitetlarning geografiyasi va hududiy tenglik masalasi OECDning keyingi ishlanmalarida ham alohida yo’nalish sifatida ko’riladi. Masalan, OECD (2025) “Geography of Higher Education” doirasidagi xulosalarda oliy ta’lim muassasalari metropol va nomutanosib rivojlangan hududlarda turlicha rol o’ynashi hamda oliy ta’lim sektori fundamental tadqiqotlarda yirik ulushga ega ekani qayd etiladi. Ushbu mantiq “place-based” (hududga yo’naltirilgan) siyosat yondashuvini kuchaytiradi: yirik shahar aglomeratsiyalarida OTMLar ko’pincha ilmiy infratuzilma va yuqori malakali mehnat bozori bilan “o’zaro kuchaytiruvchi” muhitda ishlaydi, chekka yoki kamroq rivojlangan hududlarda esa OTMLar ko’proq “ankor” institut sifatida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ushlab turuvchi va kadrlar oqimini hudud ichida saqlovchi rolni bajaradi.[2]

Inson kapitali kanaliga doir empirik dalillardan biri Germaniyada yangi universitetlar ochilishi bo’yicha Siegler (2012) tadqiqotidir. Muallif tabiiy tajribaga yaqin sharoitda farqlar farqi (difference-in-differences) yondashuvini qo’llab, universitet ochilgan okruglar va ochilmagan okruglarni vaqt bo’yicha solishtiradi. Natijalarga ko’ra, yangi universitet ochilishi okrugdagi universitet bitiruvchilari ulushini o’rtacha 8–10 foiz punktga oshiradi, ta’sir ayniqsa ayollar va muhojirlar guruhida kuchliroq kuzatiladi. Tadqiqot universitet ochilishi “qamrov”ni oshirishning amaliy natijasini ko’rsatadi: OTMning hududiy yaqinlashuvi ta’limga kirish xarajatlarini kamaytiradi va oliy ta’limga kirish ehtimolini oshiradi, natijada hudud ichida oliy ma’lumotli aholi ulushi ko’tariladi.[3]

Innovatsiya kanalini tushuntirishda ‘bilim spilloverlari’ konsepsiyasi markaziy o’ringa ega. Anselin, Varga va Acs (1997) tadqiqotida universitet tadqiqotlari va yuqori texnologiyali innovatsiyalar o’rtasida makoniy yaqinlik (spatial proximity) mavjudligi empirik ko’rsatiladi: universitet tadqiqotlari atrofidagi hududlarda innovatsion natijalar ko’proq jamlanishi mumkin. Ushbu natija hududiy qamrov masalasiga “ikkinchi darajali” ta’sir sifatida juda mos keladi: agar OTMLar bir yoki ikki markazda jamlansa, innovatsiya va tadbirkorlik ekotizimi ham ko’proq o’sha hududlarda shakllanadi, aksincha, OTMLar hududlar bo’yicha muvozanatli taqsimlansa, innovatsion faollik uchun zarur bo’lgan ilmiy hamkorlik va kadrlar bazasi kengroq geografiyada paydo bo’lishi mumkin. Shu bois, OTMLar soni va joylashuvini tahlil qilish nafaqat ta’limga kirish, balki hududiy innovatsion salohiyatni ham bilvosita baholash imkonini beradi. [4]

Universitetlarning iqtisodiy samarasi individual daromad bilan cheklanmay, hudud miqyosida ijobiy tashqi effektlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Moretti (2003-2004) inson kapitali tashqi effektlarini muhokama qilib, ta'lim darajasining oshishi hududiy mahsuldorlik va ish haqlariga ijobiy ta'sir qilish ehtimolini ko'rsatadi. OTMLar qamrovi past bo'lgan hududlarda oliy ta'limga kirish cheklansa, bu nafaqat alohida shaxslarning ta'lim darajasi, balki hudud bo'ylab umumiy mahsuldorlik va mehnat bozori sifatiga ham ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, Moretti yondashuvida sabab-oqibatni aniqlash murakkabligi qayd etiladi, bu esa OTMLar geografiyasini tahlil qilishda oddiy ko'rsatkichlarni "diagnostika" sifatida ishlatish, ammo keyingi bosqichda chuqurroq identifikatsion tahlillar (migratsiya, bandlik, ish haqi) bilan boyitish zarurligini anglatadi. [5]

Universitet–biznes–davlat hamkorligi innovatsion ekotizimlarni kuchaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida "Triple Helix" modelida izohlanadi. Etzkowitz va Leydesdorff (2000) universitetlarning innovatsiyadagi roli kuchayib borayotganini, hamkorlik tarmoqlari orqali bilimning iqtisodiy qiymatga aylanishi tezlashishini ta'kidlaydi. Bu modelga ko'ra, universitetlar nafaqat kadrlar tayyorlaydi, balki texnologiya transferi, inkubatsiya, amaliy tadqiqotlar va tarmoq hamkorliklari orqali hududiy innovatsion tizimning "tugun nuqtasi"ga aylanadi. [6]

Tahlil va natijalar

Ma'lumotlar to'plami 14 ta ma'muriy-hududiy birlik bo'yicha aholi soni va OTMLar sonini qamrab oladi. Tahlilda ikki indikator hisoblandi:

1. OTM yuklamasi – Aholi/OTM;
2. OTM zichligi – OTM/Aholi $\times$ 1 000 000.


Jami hisobda ko'rib chiqilgan hududlarda 38,24 mln aholi va 207 ta OTM mavjud bo'lib, o'rtacha 1 OTMga 184,7 ming aholi to'g'ri keladi. Biroq bu o'rtacha ko'rsatkich poytaxtdagi yuqori konsentratsiya ta'sirida pasayadi. Toshkent shahri tahlilda keskin "outlier": u 3,18 mln aholi (umumiy aholining 8,3%) bilan 95 ta OTMni (umumiy OTMlarning 45,9%) jamlagan.

Jadval 1. Hududlar bo'yicha OTM yuklamasi va OTM zichligi (muallif hisob-kitoblari).

Hudud	Aholi soni	OTMLar soni	1 OTMga aholi	1 mln aholiga OTM
Samarqand viloyati	4 379 800	14	312 843	3.20
Farg'ona viloyati	4 223 000	9	469 222	2.13
Qashqadaryo viloyati	3 717 000	9	413 000	2.42
Andijon viloyati	3 521 800	9	391 311	2.56

Namangan viloyati	3 190 800	7	455 829	2.19
Toshkent shahri	3 178 100	95	33 454	29.89
Toshkent viloyati	3 160 700	17	185 924	5.38
Surxondaryo viloyati	3 011 000	6	501 833	1.99
Buxoro viloyati	2 107 000	10	210 700	4.75
Xorazm viloyati	2 069 200	8	258 650	3.87
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 053 200	11	186 655	5.36
Jizzax viloyati	1 566 900	5	313 380	3.19
Navoiy viloyati	1 111 900	4	277 975	3.60
Sirdaryo viloyati	946 300	3	315 433	3.17

Jadval 1 dan ko'rinadiki, Toshkent shahri OTM zichligi bo'yicha mutlaq yetakchi: 1 mln aholiga 29,89 ta OTM. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (5,38) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,36) turadi. Surxondaryo viloyatida esa 1 mln aholiga 1,99 ta OTM to'g'ri kelib, eng past ko'rsatkich qayd etilgan.



1-rasm. Hududlar kesimida 1 OTMga to'g'ri keladigan aholi soni

Manba: Statistika ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

Toshkent shahrini hisobdan chiqargan holda qaralganda, 'o'rtacha' yuklama 1 OTMga 313,0 ming aholiga teng bo'ladi. Median qiymat ham 313,4 ming atrofida shakllanadi. Eng yuqori yuklama Surxondaryo (501,8 ming), Farg'ona (469,2 ming) va Namangan (455,8 ming) hududlarida (1-rasm).

Hududlararo tafovut miqyosi ham e'tiborga molik: Toshkent shahrini chetga surib qaraganda ham eng yuqori yuklama eng past yuklamadan qariyb 2,7 baravar yuqori. Bu OTMlar geografiyasida markazlashuv effekti kuchli ekanini bildiradi.

Xulosa va takliflar

OTMlar Toshkent shahrida juda yuqori darajada markazlashgan: 95 ta OTM umumiy OTMlarning qariyb yarmiga teng bo'lib, aholi ulushi esa 10%dan past. Toshkent shahridan tashqari hududlarda median yuklama taxminan 313 ming aholi/OTM atrofida. Eng yuqori yuklama Surxondaryo, Farg'ona va Namanganda.

Hududlararo tafovut (Toshkent shahrisiz ham) sezilarli: eng yuqori yuklama eng past yuklamadan qariyb 2,7 baravar yuqori.

Xalqaro empirik adabiyotlar universitetlar soni/ochilishi hududiy inson kapitalini oshirishini ko'rsatadi, shu bois qamrov nomutanosibliigi uzoq muddatli rivojlanish farqlarini kuchaytirishi mumkin.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Ustuvor hududiy kengaytirish: OTM yuklamasi eng yuqori bo'lgan hududlarda (Surxondaryo, Farg'ona, Namangan) filial-kampuslar, ixtisoslashgan institutlar yoki amaliy universitetlar ochishni ko'rib chiqish.

- Masofaviy va gibrid ta'limni hududiy siyosat bilan bog'lash: transport va turar joy xarajatlari yuqori bo'lgan hududlar uchun masofaviy dasturlarni kuchaytirish, mahalliy o'quv markazlari (learning hubs) tashkil etish.

- Hududiy kadrlarni ushlab qolish: bitiruvchilarning hududda qolib ishlashini rag'batlantiruvchi maqsadli grantlar va mahalliy ish beruvchilar bilan dual ta'lim dasturlarini kengaytirish.

- Ma'lumotlar bazasini kengaytirish: keyingi tadqiqotlarda OTMlar qabul kvotasi, talaba sig'imi, yo'nalishlar tarkibi va sifat indikatorlarini qo'shib, qamrovni yanada aniqroq baholash.

Shu bois OTM yuklamasi yuqori hududlarda filial-kampuslar, qabul quvvatini oshirish va masofaviy formatlarni kengaytirish orqali o'rta muddatda ta'lim qamrovini ko'tarish ehtimoli mavjud. OTMlar soni ularning quvvati, yo'nalishlar tarkibi va ta'lim sifati haqidagi ma'lumotlarni aks ettirmaydi. Shuningdek, hududlararo talabalar oqimi va poytaxtning mehnat bozori markazlashuvi ham natijalarni shakllantiradi. Shu sababli mazkur tahlil "birinchi darajali diagnostika" sifatida ko'rilishi lozim.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

- [1] OECD (2007) *Higher Education and Regions: Globally Competitive, Locally Engaged*. Paris: OECD Publishing.
https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2007/09/higher-education-and-regions_g1gh801e/9789264034150-en.pdf
- [2] OECD (2025) *The Geography of Higher Education: Lessons learned (Selected highlights)*. Paris: OECD.
<https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/about/projects/cfe/eecole/GoHE-selected-highlights-final.pdf>
- [3] Siegler, B. (2012) 'The Effect of University Openings on Local Human Capital Formation: Difference-in-Differences Evidence from Germany', *BGPE Discussion Paper*.
<https://www.econstor.eu/bitstream/10419/73459/1/726275352.pdf>
- [4] Anselin, L., Varga, A. and Acs, Z. (1997) 'Local Geographic Spillovers between University Research and High Technology Innovations', *Journal of Urban Economics*, <https://doi.org/10.1006/juec.1997.2032>
- [5] Moretti, E. (2003) 'Human Capital Externalities in Cities', *NBER Working Paper* No. 9641. Available at:
https://www.nber.org/system/files/working_papers/w9641/w9641.pdf
- [6] Etzkowitz, H. and Leydesdorff, L. (2000) 'The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university–industry–government relations', *Research Policy*, 29(2), pp. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4)